

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT TO'QIMACHILIK VA YENGIL SANOAT INSTITUTI



«MENEJMENT» KAFEDRASI

**«BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH ASOSLARI» FANIDAN
TAQDIMOT**

Bajardi: Boltayev R.

Tekshirdi: Umarova M.

TOHKEHT – 2015

Mavzu: Boshqarish tizimini tadqiq qilishning mantiqiy-evristik usuli

Reja:

1. Mantiqiy-evristik usul, uning mohiyati.
2. Mantiqiy-evristik usulning turlari.
3. Ekspert-baholash usuli, uning turlari
4. G`oyalarni generatsiya qilish usuli. Delfa usulinig mohiyati.

Mantiqiy-evristik usul

- Mantıqiy-evristik usul hamma uchun ma'lum bo'lgan mantiq fanidan umummilliy nazariyasiga va evristikaga suyanadi. Evristika so'zi o'zbek tilida "Xaqiqatni bilish san'ati" deb tarjima qilingan. Bu usulning o'ziga xosligi shundan iboratki, u tahlilni sifat ko'rsatkichlari bo'yicha usullariga, mutaxassislarni sog'lom fikri mulohazalariga ularning tajriba va bilimlariga suyanish bilan bir qatorda shu mutaxassislardan ichki tuyg'ulariga ham asoslangan bo'ladi. Demak, bu usul bilan o'tkaziladigan tadqiqot natijalari aniq raqamlarga suyanganda faqat insonlarning shaxsiy fikrlari orqali bayon etiladi. Mantıqiy evristik usulning o'zi bir nechta turlarga bo'linadi.

Bu usullar quyidagilar:

1. Rasmiy mantiq usuli

2. Analogiya usuli

3. Ekspert-baholash usuli

4. Maxsus evristik usullar

1. Rasmiy mantiq usuli

Bu usulda haqiqatni bilish ikki bosqichda amalga oshiriladi:

1. Analitik usul bo`lib, unda xulosaga kelish uchun tadqiqot ishlari aniq obyektlarni alohida-alohida o`rganib, ularni umumlashtirish asosida amalga oshiriladi. Bu usulni INDUKTIV usul deb ham ataydilar.

2. Haqiqatni o`rganish uchun abstrakt umumiy holatni o`rganish asosida aniqlikga erishishdir, ya`ni vaziyatni umumiy holda qabul qilib, uni ishni DEDUKTIV USUL va SINTEZ USULI deb ataymiz.

2. Analogiya usuli

Analogiya usulining o'ziga xosligi unda aniq isbotlash kuchini yo'qligidir. Analogiya usulida yangiliklarni yaratish uchun o'rganilayotgan vaziyatga juda yaqin bo'lgan vaziyatlar tanlab olinadi, ya'ni ularni shu vaziyatga o'xshash ya'ni analoglar deb qabul qilinadi. Taxli qilish uchun obyektlarni 2 xil tartibda tanlash mumkin. Shunga ko'ra analogiya usuli ham 2 hil bo'ladi:

1. Matematik usul

2. Tarixiy usul

3. Ekspert-baholash usuli

Tadqiqot ishlarini ilmiy jihatdan asoslanganligi yaratiladigan yangiliklarni aniqligi ko`p hollarda mutaxssislarni fikriga bog`liq bo`ladi. Ekspert-baholash usuli bo`yicha o`tkaziladigan tajribalarni 3 qismga(bosqichga) ajratamiz:

1. Tayyorgarlik ko`rish bosqichi.

2. Ekspertlar bilan so`roqlar o`tkazish.

3. So`roqlash natijalarini qayta ishlash.

4. Delfa usuli

Delfa usuli 60-yillarda AQSHning “REND KORPOREYSHN” firmasida ishlab chiqildi. Bu usul sirtqi kuzatuv usuli boʻlib, yozma ravishda oʻtkaziladi. Buning uchun ekspertlar belgilanadi, ekspertlarni belgilash mavzuga asoslangan boʻladi. Tajriba bir nechta turda oʻtkaziladi. Bu usulning oʻziga xosligi uning anonimligi va sirtdan oʻtkazilishidir. Delfa usulini oʻtkazish uchun tajribali oʻtkazadigan mutaxassislar guruhi yoki ijodiy guruh tashkil etiladi. Tajribaning birinchi turida ijodiy guruh mavzu boʻyicha savollar tayyorlaydi, savollarni ekspertlarga joʻnatadi. Ekspertlar savolga javob yozib, tajriba guruhiga joʻnatadilar. Ijodiy guruh javoblarni qabul qilib oladilar, qayta ishlaydilar va maʼlum bir darajada fikr mulohazaga ega boʻladilar. Tajribaning ikkinchi turi ijodiy guruhdan kelgan javoblar mazmuni asosida va oʻz fikrlarini izohlagan holda ikkinchi marta savollarni ekspertlarga uzatadilar. Ekspertlar bu savollarga chuqurroq javob bergan holda javoblarni qaytarib joʻnatadilar. Javoblar yana qayta ishlanadi. Agar toʻliq maʼlumot olinmagan boʻlsa, tajribani uchinchi, toʻrtinchi turlari davom ettiriladi. Bu usulning ijobiy tomoni ekspertlarning betarafligidir va ekspertlarni bir-biriga taʼsir oʻtkazmasligida. Demak, bu usul orqali oʻtkaziladigan tajriba koʻp vaqt talab etishi bilan bir qatorda olingan maʼlumotlar aniq boʻladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati

1. M. Sharifxojayev, Q. Abdullayev.
“Menejment” fanidan o`quv dasturi 2013y.
2. X.S. Zaynutdinov, Sh.N. Zaynutdinov.
“Menejment” Toshkent 2008y.
3. «Menejment asoslari» fanidan ma`ruzalar matni
T.O.Ergashev
4. «Menejment asoslari» fanidan ma`ruzalar matni
N.Murodova
5. www.ziyonet.uz
6. www.titli.uz

E'tiboringiz uchun rahmat